



XXI asrda ijtimoiylashuv jarayonida xulqi og'ishganlik ko'rsatkichlarini psixologik korreksiyasi

**Maxsudova Azizaxon
Abdumajid qizi,**

*Farg'ona davlat universiteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Аннотация

Mazkur maqolada xulqi og'ishgan bolalar bilan psixologik korreksion ishlarning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Xulqi og'ishgan bolalarning psixologik xususiyatlari, ularga ta'sir etuvchi ijtimoiy va oilaviy omillar tahlil qilingan. Kognitiv-bixevioral terapiya, art-terapiya, rolly o'yinlar, trening mashg'ulotlari va relaksatsiya usullari kabi samarali metodlar hamda amaliy metodikalar bayon etilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy statistik ma'lumotlar keltirilib, ularning amaliyotda qo'llanishi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar:

Xulqi og'ishgan bolalar, psixologik korreksiya, kognitiv-bixevioral terapiya, art-terapiya, rolly o'yinlar, trening mashg'ulotlari, relaksatsiya usullari, ijtimoiy omillar, oilaviy omillar

Психологическая коррекция показателей девиантного поведения в процессе социализации в XXI веке

**Максудова Азизахан Абдумаджидовна
Ферганского государственного университета
студентка 3 курса факультета психологии**

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты психологической коррекционной работы с детьми с отклоняющимся поведением. Проанализированы психологические особенности таких детей, а также социальные и семейные факторы, оказывающие на них влияние. Описаны эффективные методы и практические подходы, включая когнитивно-бихевиоральную терапию, арт-терапию, ролевые игры, тренинговые занятия и методы релаксации. Кроме того, приведены отечественные и зарубежные статистические данные и научно обосновано их применение в практике.

Ключевые слова: дети с отклоняющимся поведением, психологическая коррекция, когнитивно-бихевиоральная терапия, арт-терапия, ролевые игры, тренинговые занятия, методы релаксации, социальные факторы, семейные факторы

Psychological correction of deviant behavior indicators in the process of socialization in the 21st century

Makhsudova Azizakhan Abdumajid kizi
Fergana State Universite
3nd year student of Psychology

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of psychological correctional work with children exhibiting behavioral disorders. The psychological characteristics of such children, along with the social and family factors influencing them, are analyzed. Effective methods and practical approaches, including cognitive-behavioral therapy, art therapy, role-playing games, training sessions, and relaxation techniques, are described. In addition, both local and international statistical data are provided, with a scientific explanation of their application in practice.

Key words: children with behavioral disorders, psychological correction, cognitive-behavioral therapy, art therapy, role-playing games, training sessions, relaxation techniques, social factors, family factors

Xulqi og'ishgan bolalar jamiyatdagi umumiy tarbiya tizimining muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Ularning deviant xatti-harakatlari faqatgina shaxsiy xususiyatlar emas, balki oilaviy, ijtimoiy va maktab omillari bilan ham bog'liqdir. Psixologik korreksiya jarayoni bunday bolalarda ijobiy xulqiy o'zgarishlarni yuzaga keltirish, ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirish va shaxsiy rivojlanishiga yordam berishni maqsad qiladi. Shu sababli, korreksion ishlar kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan bo'lishi zarur. Xulqi og'ishgan bolalar bilan ishlashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Individual yondashuv – har bir bolaning yosh, shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olish;
- Kuzatish va diagnostika – dastlabki bosqichda psixologik testlar va suhbatlar orqali bolaning muammolarini aniqlash;
- Komplekslik – psixolog, pedagog, ota-ona va tibbiyot xodimlari hamkorligida ish olib borish; ijobiy mustahkamlash – bolaning kichik muvaffaqiyatlarini ham qo'llab-quvvatlash orqali xulqni shakllantirish;
- Profilaktika – muammoni erta aniqlash va og'ishlarning yanada chuqurlashib ketishining oldini olish.

Psixologik korreksion ishlar — bu psixolog tomonidan insonning (bola yoki kattalarning) xulq-atvori, hissiyoti, fikrlashi yoki ijtimoiy munosabatlaridagi salbiy og'ishlarni to'g'rilash va ijobiy tomonga o'zgartirishga qaratilgan maxsus psixologik faoliyatdir. Psixologik korreksion metodlar quyidagilardan iborat:

Kognitiv-bixeviorial terapiya (KBT) – bolaning salbiy fikrlari va xulq-atvorini o'zgartirishga qaratilgan, masalan, “Men hech narsaga yaramayman” degan fikr o'rniga “Men ham muvaffaqiyat qozonishim mumkin” kabi ijobiy fikrlarni shakllantirish. Agressiyani nazorat qilish mashqlari, impulsni boshqarish usullari qo'llanadi.

Art-terapiya – rasm chizish, loydan yasash, qo'shiq aytish orqali bolalar ichki hissiyotlarini ifoda etadi, bu usul ayniqsa, gapirishni xohlamaydigan yoki emotsiyalarini yashiradigan bolalarda samarali. Rolli o'yinlar (psixodrama) – bolalar

konfliktli vaziyatlarni sahnalashtiradilar va ularni yechish yo'llarini topadilar. Ijtimoiy rollarni bajarish orqali empatiya, hamkorlik va mas'uliyatni o'rganadilar.

Trening mashg'ulotlari – "Muloqot ko'nikmalari", "Konfliktni hal qilish", "Jamoadi ishlash" kabi treninglar bolalarda ijtimoiy adaptatsiyani oshiradi. Mashqlar: juftlikda hamkorlik, guruhviy vazifalarni bajarish, ijobiy fikr bildirish. Relaksatsiya va autogen mashqlar – stressni kamaytirish, tashvish va agressiyani yengillashtirishga qaratilgan. Nafas mashqlari, musiqiy relaksatsiya, vizualizatsiya usullari qo'llanadi.

O'yinli korreksiya – maktabgacha va kichik yoshdagi bolalarda ijtimoiy me'yorlarni o'rgatishda juda samarali. "Do'st topish o'yini", "Men ham qila olaman" kabi o'yinlar orqali bolalar o'zini ko'rsatadi. Amaliy metodikalar quyidagilar: Agressiyani kamaytirish metodikasi (A. Bass va A. Darki testi asosida) – bola agressivlik darajasi aniqlanadi va psixologik treninglar yordamida o'zini nazorat qilish ko'nikmalari o'rgatiladi. "O'zingni boshqar" metodi – bola jahl chiqarganda chuqur nafas olib, 10 gacha sanashni o'rganadi. "Ijobiy o'rnak" metodikasi – bolaga ijobiy model (do'stona, me'yoriy xatti-harakatlarni namoyon qiluvchi shaxs) ko'rsatilib, unga taqlid qilish rag'batlantiriladi. "Qoidalar stoli" metodikasi – bolalar bilan birgalikda sinf yoki guruh uchun qoidalar ishlab chiqiladi va bola o'zini shu qoidalarga rioya qilishga majbur his qiladi. Logoterapiya elementlari (V. Frankl asosida) – bolaga hayotda maqsad qo'yish, kichik vazifalar orqali o'zini namoyon etish imkonini berish.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston psixologiya institutining 2023-yilgi tadqiqotlarida maktablarda o'tkazilgan korreksion dasturlardan so'ng xulqi og'ishgan bolalarning 60 % ida agressiv xatti-harakatlar kamaygan. Rossiya ilmiy markazida olib borilgan tadqiqot (2019) natijalariga ko'ra, art-terapiya qo'llangan bolalarning 72% ijtimoiy moslashuvi yaxshilangan. KBT usuli yordamida esa bolalarning 80 % i o'zini nazorat qilish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan (Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasi, 2020). Xulosa qilib aytganda, xulqi og'ishgan bolalar bilan olib boriladigan psixologik korreksion ishlar kompleks va tizimli bo'lishi kerak. Kognitiv-behavioral terapiya, art-terapiya, rolli o'yinlar, trening mashg'ulotlari va relaksatsiya metodlari bolalarning xulqini to'g'rilashda samarali natija beradi. Shuningdek, otalalar va pedagoglarning faol ishtiroki, profilaktik chora-tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi bu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977.
2. Skinner B. F. Science and Human Behavior. New York: Macmillan, 1953.
3. Freyd Z. Psixoanaliz nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2005.
4. Frankl V. Inson ma'nosi izlab. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
5. Bass A., Darki A. Agressiyani o'lchash metodikasi. Moskva: Pedagogika, 2003.
6. APA (American Psychological Association). Effective Interventions for Children with Behavioral Disorders. Washington, 2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Deviant xulqni korreksiya qilish metodik qo'llanma. Toshkent, 2023.